

SURXONDARYO O‘ZBEK SHEVALARI TAHLILI VA KLASSIFIKATSIYASI

Lobar Jumaqulova,

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotasiya: Maqolada Surxondaryo o‘zbek shevalarini ilmiy asosda o‘rganish, ularni klassifikatsiya qilish va o‘zbek shevalarining fan sifatida yaratilishi, rivojlanishiga bag‘ishlanadi. Xususan, o‘zbek shevalarining kelib chiqish tarixi, o‘tgan asrda va bugungi kundagi roli va ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sheva, lahja, Qashqadaryo va Surxondaryo shevalari, milliy madaniyat, adabiyot, shevalarning leksik xususiyatlari, dialekt.

АНАЛИЗ И КЛАССИФИКАЦИЯ СУРХАНДАРЬИНСКИХ УЗБЕКСКИХ ДИАЛЕКТОВ

Аннотация: статья будет посвящена научному изучению сурхандарьинских узбекских диалектов, их классификации и созданию, развитию узбекских диалектов как науки. В частности, освещается история происхождения узбекских диалектов, их роль и значение в прошлом веке и сегодня.

Ключевые слова: диалект, диалект, кашкадарьинский и сурхандарьинский диалекты, национальная культура, литература, лексические особенности диалектов, диалект.

ANALYSIS AND CLASSIFICATION OF UZBEK DIALECTS OF SURKHANDARYA

Annotation: in the article, Surkhandarya will be devoted to the study of Uzbek dialects on a scientific basis, their classification and the creation, development of Uzbek dialects as a science. In particular, the history of the origin of Uzbek dialects, its role and significance in the last century and today are highlighted.

Keywords: dialect, dialect, Kashkadarya and Surkhandarya dialects, national culture, literature, lexical features of dialects, dialect.

Kirish. Ma'lumki, shevalarimiz tadqiqi tarixi XX asrning 20-yillariga borib taqaladi va bugungacha davom etmoqda. Shevalarni tadqiq etishga qiziqishning umumiy sabablari tilning istiqboliga aloqadordir. Biz milliy tilimizni ham adabiy, ham sheva ma'nolarida tushunamiz. Adabiy tilning o'ziga xos taraqqiyoti bor, lekin sheva va lahjalarimizning taraqqiyot va rivojlanish masalasi bahslidir. Lahja arabcha so'z

bo'lib, ifoda, ovoz, sheva ma'nolarini anglatadi. O'zbek shevashunosligida lahja shevalarning asosiy xususiyatlarini o'zida birlashtiruvchi hisoblanadi. O'zbek shevashunosligida lahja, dialekt, sheva atamaları turli ma'nolarni anglatib, qo'llanilib kelmoqda. Shevalar bir-biriga juda yaqin va o'xshash bo'lganligi bilan birga, tilimizning eng kichik birligi sanaladi. Shevalar o'zlarining geografik o'rni bilan farqlanadi. Sheva — tilning muayyan hududiy, ijtimoiy yoki madaniy guruh tomonidan ishlatiladigan o'ziga xos ko'rinishi. Sheva, asosan, lug'at, talaffuz, grammatik tuzilish va ma'no jihati bilan tilning adabiy shaklidan farq qiladi. Bu o'zgarishlar hududga, xalqning turmush tarziga, urf-odatlariga va boshqa omillarga qarab shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili. Surxondaryo o'zbek shevalarini ilmiy asosda o'rganish, ularni klassifikatsiya qilish uchun Saidmuro Rahimov¹ ilmiy tadqiqotlar olib brogan va shevada tovushlarning o'zgarish xususiyatlari, dialectal so'zlarning tematik gruppalarini aniq tahlil qilib berolgan. Turkiston sovet hokimiyati zo'rlik bilan o'rnatilgandan so'ng, turkiy urug'larning urf-odat va shevalarni o'rganishga jidd-u jahd bilan kirishildi. Salkam bir asr mobaynida o'zbek shevalari bo'yicha o'nlab nomzodlik va doktorlik ishi qilindi, minglab maqolalar yozildi, kitoblar chop etildi. F.Abdullaevning "Xorazm shevalari"², M.Mirzaevning "O'zbek tilining Buxoro shevalari", B.Jo'raevning "Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari" asarlari shular jumlasidandir.

Asosiy qism. Hududiy shevalar — bu tiling ma'lum bir geografik hududga xos bo'lgan variantlari. Masalan, o'zbek tilida Toshkent shevasi, Farg'ona vodiysi shevasi, Samarqand-Buxoro shevalari mavjud. Har bir mintaqaning o'ziga xos talaffuzi va lug'at tarkibi bor. Ijtimoiy shevalar — bu jamiyatning turli qatlamlari yoki ijtimoiy guruhlari o'rtasida tarqalgan til variantlari. Bu yerda guruhlarning ijtimoiy mavqega, kasbga yoki boshqa xususiyatlarga qarab ajratilishi mumkin. Masalan, yoshlar o'rtasidagi kasbiy jargonlar ijtimoiy shevaga kiradi.

Ma'lumki, sheva materiallari o'zbek adabiy tilining rivojlanish tarixini o'rganish uchun qanchalik qimmatli manba hisoblansa, tarix va etnografiya fanlariga ham shunchalik boy hamda ishonchli materiallar beradi. Chunki jonli til xalqning tarixiy yodgorligi hisoblanadi. P.M.Melioranskiy hozirgi zamon dialektlari yozma yodgorliklarda, shuningdek, hozirgi adabiy tilida ham uchramaydigan ko'pgina so'z va so'z formalarini, leksik elementlarni saqlab qolganligini, ularni asosli ravishda o'rganish tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlashda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilishini ko'rsatgan. O'zbek tilining Surxondaryo viloyati atrofidagi o'zbekcha so'zlashuvchi aholi nutqida ko'p asrlilik tarixiy taraqqiyotni, moddiy va madaniy

¹ Rahimov S. "O'zbek tili Surxondaryo shevalari (fonetika, leksika)". T.: Fan, 1985.

² Abdullaev F. "Xorazm shevalari", T.: Fan, 1961.

hayotni aks ettiruvchi juda ko'p til faktlarini saqlaganki, shuning uchun bu shevalar ham har tomonlama tarixiy-tavsifiy va lingvogeografik xususiyatlarga ega. Hozirgacha mavjud bo'lgan o'zbek shevalarining klassifikatsiyasida Surxondaryodagi o'zbek shevalari umumiy tarzda qipchoq lahjasining "j"lovchilar guruhiga kiritiladi.

Professor E.D.Polivanov klassifikatsiyasiga ko'ra, Surxondaryo o'zbek shevalari qipchoq lahjasining janubiy o'zbek "j"lovchilar guruhiga kiritilgan. Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarini o'rganish natijasida shunga amin bo'lishimiz mumkin, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, Dehqonobod tumanlarida yashovchi aholi shevasi bilan Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on, Qiziriq, Qumqo'rg'on shevalarida o'xshashlik juda ko'p. Bunga sabablardan biri hududiy yaqinlik va doimiy qarindoshlik aloqalari hisoblanadi. Kuzatishlar jarayonida Qashqadaryo va Surxondaryo "j"lovchi shevalari leksik va fonetik sathida tojik tili ta'siri sezilarli ekanligini ko'rish mumkin. Bu o'ziga xoslik Yakkabog', Dehqonobod, Sariosiyo, Denov va Boysun shevalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu shevaga xos xususiyatlardan biri ular "o'" va "i" tovushlarini cho'zib talaffuz qiladi. Masalan: jilon, jo'l, jilamoq "o'" va "i" tovushlari cho'ziq hamda urg'u bilan aytiladi.³

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati etnografizmlarni quyidagi tematik guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Milliy urf-odatlar, marosimlar, an'analar va qadriyatlarning nomlarini anglatuvchi etnografizmlar: darvishona, oshxudayi, pitro'za, dangana, to'qson kirsas, to'rg'ay qadamicha kun uzayar;
2. Urug'-qabila nomlarini bildiruvchi etnografizmlar: tortuvli, qo'ldovli, oboxli, saroyi, qoraqasmoq, kal, ko'sa, arab, rayimto'da, mo'nka ovul kabi;
3. Oziq-ovqat va uy-ro'zg'or nomlarini anglatuvchi etnografizmlar: jalama, nonbosdi, tondirgo'sht, shirkadi, piyoba, yaxna, cho'poncha, jupqa, nonto'shama, g'ilmindi, daskala, chopqi va boshqalar;
4. Kiyim-kechak hamda taqinchoq nomlarini bildiruvchi etnografizmlar: charchi, lachak, kurta, massi, so'zana, mo'kki;
5. Chorvachilik va dehqonchilik bilan bog'liq etnografizmlar: to'l, to'la, uvuz, gilagay, qog'anoq, ko'nargi, tomizg'i, iydirma, enchi, chagana, to'xli, shishak, chibich.

Ikkala sheva ham o'z hududlarida keng qo'llaniladi va adabiy o'zbek tiliga nisbatan mahalliy leksik va fonetik xususiyatlar bilan boyitilgan. Shevalar odatda og'zaki muloqotda qo'llaniladi va ko'pincha adabiy tilning qoidalariga zid keladi.⁴ Shunga qaramay adabiyotda shevalarning ishlatilishi o'quvchini real hayotdagi til va madaniyatga yaqinlashtiradi. Ba'zan yozuvchilar shevalarni juda katta miqdorda qo'llashdan qochadilar, chunki bu o'quvchilar uchun tushunishini qiyinlashtirishi

³ Rahimov S. O'zbek tili Surxondaryo shevalari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1985.

⁴ Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. T., O'qituvchi, 1996.

mumkin. Biroq me'yorida ishlatilgan sheva adabiyotning mazmunini boyitib, uning jonliroq va tabiiyroq bo'lishiga xizmat qiladi. O'zbek adabiyotida shevalarning qo'llanilishi milliy madaniyat va an'analarga xos o'ziga xoslikni aks ettiradi. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad kabi yozuvchilar o'z asarlarida turli hududlarga xos shevalardan foydalanib, o'zbek xalqining turmush tarzini, mintaqaviy madaniyatini va kundalik hayotini yorqin ifodalaydilar. Masalan, Abdulla Qahhorning "Sarob" asarida qahramonlarning so'zlashuvi orqali ularning kelib chiqishi va jamiyatdagi o'rni aniqlanadi.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilining lug'at sistemasida o'zbek tilida so'zlashuvchilarining barchasi uchun tushunarli bo'lgan umummillat xarakteridagi so'zlardan tashqari, millatning ijtimoiy gruppalanishi yangi genetik jihatdan ayrim qabila va aholining teritoriya belgisiga ko'ra joylashishi hamda madaniy xo'jalik maishiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan so'zlar ham uchraydi. Bunday so'zlar orasida traditsion leksika va etnografizmlar alohida o'rin tutadi, boshqa predmet, hodisalar atamasida ham shevaning o'ziga xosliklari bor.

Surxondaryoning "y"lovchi shevalarida xususan, Gazarak, Qorasuv, Xonim, Toqchiyon qishloqlari shevasida kette ote — otaning otasi, keche ote — onaning otasi, kette ene — otaning onasi, kecha ene — onaning onasi; oshoba shevasida bo'le — xolavachcha, bo'lo — opa-singilning bolalari kabi qarindoshlik terminlari uchraydi. Shuningdek, "j"lovchi shevalarda: eyje-beyche — xotin-qizlarga murojaat qilinadigan so'z, yuqori Qashqadaryo shevalarida biyi so'zi ham shunday ma'noga ega.

Professor F.Abdullaev o'zbek shevalarini tadqiq qilishda dialektal matnlarga asoslanib ish ko'rishni shevalar tadqiqidagi samarador usul deb biladi. Binobarin, dialektal matnlarning bir turi dialektal maqollar bo'lib, har biri yirik asar ma'nosini ifodalashi mumkin. Quyida berilgan maqollar Qiziriq shevasida bo'lib, har bir maqol o'zining kelib chiqish tarixiga ham egadir:

Otangni ko'rdi Ahmad poriq,

Enangni ko'rdim tovonni joriq.

Maqolda ena so'zi ona ma'nosida kelgan. Qiziriq shevasida ona so'zi ena, yena, aya shakllarida qo'llaniladi. "J"lovchi sheva vakillari nutqida "y" tovushi "j"ga almashinib, talaffuz qilinadi.

Ayuvedi-mayuvedi, o'zimdi joyim edi

Chaqiridi-chuquridi o'zimdi uyim edi.

Bu maqol kelib chiqish tarixiga ega. Qadim zamonda bir qiz toqqa borib qolib, bir ayiqqa ko'ngil berib turmushga chiqqan ekan. Uning ota-onasi uylariga qaytarib olib kelishganda bir muddat yashab, keyin shu so'zlarni aytib chiqib ketgan ekan. Shundan buyon xalq orasida qizlar kelin bo'lib tushgan joyda tinib-tinchib ketishi nazarda tutilib, xalq orasida maqollarga aylangan deyishadi. "O'zbek xalq maqollari"

kitobida “O‘nqir edi, cho‘nqir edi — uyim edi. Ayiq edi, sayiq edi — erim edi” varianti uchraydi.⁵

Xulosa. Xalq og‘zaki durdonasi sifatida bu kabi xalq donishmandligining ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan noyob meros, keksa avlodlarning bemisl xazinasini lingvistik planda o‘rganish juda ham dolzarbdir. Zotan, avlodlar almashinuvida til va madaniyat, tafakkur tarzi tamoyillarini yoritishda paremalarning ajralmas o‘rni mavjud. Ayniqsa, o‘zbek shevalari leksikasi bilan bir qatorda, paremalarni ham leksikografik jihatdan tadqiq etish nafaqat o‘zbek dialektologiyasi, balki leksikografiya korpus lingvistikasi uchun ham g‘oyat muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimov S. “O‘zbek tili Surxondaryo shevalari (fonetika, leksika)”. T.: Fan, 1985.
2. Tillaboeva Z. “O‘zbek shevalarining lekik xususiyatlari” dis. S.: 2023.
3. Hamidov M. “Surxondaryo o‘zbek shevalarga doir ayrim paremalar tahlili”
4. Omonturdiyev A., Rahmonov B. “Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug‘ati”. – Toshkent, “Ilm Ziyozakovat”, 2019.
5. Rahimov S. O‘zbek tili Surxondaryo shevalari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1985.
6. Enazarov T.J. Karimjonova V.A. va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. T., Universitet, 2012.
7. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. T., O‘qituvchi, 1996.
8. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. T., 2013.
9. Suvonova R. Qipchoq shevalariga xos so‘zlar lug‘ati. SamDU nashri, 2019.

⁵ Omonturdiyev A., Rahmonov B. “Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug‘ati”. – Toshkent, “Ilm Ziyozakovat”, 2019.